



O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2014-yil 19-dekabrda 0055-rasqat bilan qayta ro'yxatga olingan.

Maksum son.

Tahrir hay'ati:

Baxtiyor SAIDOV
Dilshod KENJAYEV
Nizomiddin MAHMUDOV
Yorqinjon ODILOV
Nasirullo MIRKURBANOV
Jahbor ESHONQULOV
Valijon QODIROV
Baxtiyor DANTYAROV
Abdurahim NOSIROV
Tolib ENAZAROV
To'qin SAYDALIYEV
Ravshan JOMONOV
Zulkumor MIRZAYEVA
Qozogboy YO'LDSHEV
Tajixon SABITOVA
Salima JUMAYEVA
Nilufar NAMOZOVA
Lutfullo JO'RAYEV
(bosh muharrir o'rinsobasi)

Bosh muharrir:

Bahodir JOVLIYEV

Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV

Nashr uchun mas'ullar:

Nilufar NAMOZOVA
Nigora URALOVA
Yuliya MUSURMANOVA

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri
Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.
Telefon: (98) 121-74-16,
(71) 233-03-10, (71) 233-03-45,
(71) 233-03-67.
e-mail: til.adabiyot@ymail.uz
web-sayt: www.tiladabiyot.uz

Jurnanal "kor'erb" bosqich masjulalar "Til va adabiyyot ta'limi" nomi olindi, deb ishlashdi sharoit.

Jurnanal nashr etilgan maqoladagi muddatlarining tahririyat mas'ifi nazariga rasulqoq kelmaydigan fikr-mu'lohatlar bo'shishni munton.

Tahririyats kelgan qo'slyozmalarni taqsim qilinmaydi va muallifiga qaytarilmaydi.

Bosmaxonaqa 2022.25.06. da topshirildi. Ofis usulida cheq etildi. Qo'shichini 678x41.5. Sharid bosma fabriq 6.0. «Atala» gamitmasi. 10, 11 kog'. «ECO TEXTILE PRODUCTS» MCHJ bosmaxonasasi chiq etildi. Manzil: Toshkent sh. Minrob tum., Matbuotchilar ko'chasi 32-uy. Burtiyuma — Adadi 200 masha. Bahos kelishilgan narida.

1991-yildan chiqsa boshlagan

TIL VA ADABIYOT

TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

LANGUAGE AND LITERATURE

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

MUNDARIJA

Gafurjon MUXAMEDOV. Toshkent viloyat chirchiq davlat pedagogika instituti — 5 yoshsda 2

DOLZAR MASALA

Rayxon Rasulova. Og'zaki va yo'zma nutq — komilki belgisi 3

ILGOR PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALAR

Feruza Murodova. Maktab adabiyot darslarida hikoya janrini o'qitish texnologiyasi 7

Sarvinoy Berdiyeva. O'quvchilarda matn bilan ishlash va tahlil qilish ko'nikinosini shaklantirishning pedagogik-psixologik omillari 8

Ruxsora Murodova. Ona tilli tilimida nostandart testlardan foydalanshan usullari 11

Tojixon Sabitova. Maqolar hadiyatiga doir 12

Sirdaryoxon O'tanova. Adabiy qabronmlar ruhiyati va tasvir mustaclaridagi 14

TAHLIL

Mohizor No'monova. Hamid Olimjon lirikasida epitetining semantik-stilistik xususiyatlari 16

Gulmira Komilova. Tilshunoslikda lingvokulturologiya 18

Nilufar Ataqlouva. O'tkir Hoshimov ijdida obzor yashar yarashit mahorati 20

Umida Shermatova. Tabaqalishlirilgan adabiyot ta'limida binar mu'ruza metodi 22

O'tkir Islamov, Gulzoda Bekmuratova. Madaniy nutq — bebaho ma'naviy boylik! 24

Adiba Davlatova. So'zning as ma'nosi — sho'irning as dardi 26

Nodira Xoliqova, Humoyun Umaraliyev. Komil inson masalasi — jamiyat masalasi 28

Iroda Xoliqulova. Hamza Hakimzoda niyoziyining dramalarida monologik nutqning o'rni 30

Nizomiddin Bozorov, Ulug'oy Choriyeva. Dramatik asarakarda maskon, zamon va basdiri tilining komparativ qirralari 32

Bahoroy Shushmanov. Ingliz va o'zbek maqollarining kognitiv-qiyosiyi tahlili 34

Ziyoda Usmonova. Ta'lim tizimiga oid qazishlar, tabillar va takliflar 36

Gulshodurin Tojibeyova. Abdulla Qodiriy va zamordoshlari ijdida ayollar obrazining mushtarak jihatlari 38

Emina Achilova. O'tkir Hoshimovning "urushning so'nggi qurbanbi" hikoyasida psixologik tasvir 40

Musajon Tadjibayev. Germenevitida psixologik talqin muammolari 42

TADQIQAT

Hoshimjon Quchqorov. Tarjimon, tarjima va matn 44

Nafisa Rahmanova. Nizomiy va Navoiyning ota-o'g'il munosabatlari haqidagi qarashlari 46

Laylo Xasanova. Navoiy lirikasida obrazni ioda etishda ritm va maxzumun uyg'uniqligi 49

Arofatoy Maydunova. O'zbek milliy uyg'onish adabiyoti vakillari ijdida muvashishshash san'ati 51

Mohigul Mavlonova. "Farhad va Shirin" dostonida shopur obrazi talqini 53

Nizomiddin Bozorov, Mohira Hayitova. Samimiyatning teran badiyi ijdasi 55

Ra'ma Kayrullahova. O'quvchilar nutq madaniyatini takomillashtirish, nutqini o'strish yo'llari va vazifalari 58

Nafisa Muratova. Maktabda tarixiy so'zlar mavzusini o'tishning o'ziga xos usullari 60

Abdishukur Shofqorov. "O'zbek tilining izohlil lug'ati" dagi dialektacl so'zlar 63

Rahmatilla Norbekov. Munlig' qalbar kuchisi 65

KICHIK TADQIQAT

Qodirjon Mo'yinov. Sud nutqi leksikasidagi o'zlashtims so'zlar 67

Shahnoza Azimjonova. Akademik Naim Karimovning ijodkor portretini tarixiy jarayon zamridari o'rganish mahorati 69

Xosiyat Abdullaqhorova. Mustaqbil so'z turklaridagi antisemik munosabatining ifodalishishi 70

Dildora Yorbulova. Hamza Hakimzoda niyoziyining ashulalarida xotin-qizlar mavzusi 72

Aziza Avezova. Alisher Navoiy "Turkiylar choseri" 73

Nodira Xoliqova. Millat va jamiatning badiyi in'kioshi 76

Hikmat Hikmatov. Adabiyot darsida yangi — "xamsa" metodidan foydalanshan usullari 78

Xumoyun Umaraliyev. Hamza Hakimzoda Niyoziyining she'riyatiда erk va bilim talqini 80

TIL VA ADABIYOT

TA'LIMI

jurnalı

© O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLIGI

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkumasini huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining

Filologiya va Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natiyalari chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashridir.

Shahnoza AZIMJONOVA,
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika
instituti tayanch doktoranti

AKADEMIK NAIM KARIMOVNING IJODKOR PORTRETINI TARIXIY JARAYON ZAMIRIDA O'RGANISH MAHORATI

XX asr o'zbek adabiyoti davri tarixiy jarayonning suronli yillardini qamrab olib, ijodkorlar iste'dodlari rivojlanishida "oltin pillapoya" vazifasini o'tadi. Bu davr adabiyotida ozarbayjonlik yuksak insoniy fazilatlar hamda adabiy tafakkur egasi Maqsud Shayxzodaning alohida o'mi bor. Maqsud Shayxzoda 1928-yil fevral oyida surgun muddatini o'tash uchun o'zbeklar diyorligi qadam qo'yadi. Shu kundan boshlab to umrining so'nggi kuniga qadar o'zbek she'riyati, adabiyotshunoslik ilmi taraqqiyoti, tarjimashunoslik sohasida qator asarlari, ilmiy tadqiqotlari hamda tarjima asarlari yaratib o'zbek adabiyotining oltin fondini boyitishga o'zining ulkan hissasini qo'shdii. Adlibning tahlikali va zavqligi hayoti, ijodidagi rang-barangilik, uning adabiy-estetik qarashlari, shoirona qalbini tahlii qilish so'nggi yillarda ko'plab tadqiqotlarga mavzu bo'ldi. Shu yo'nalishda nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarining dunyo yuzini ko'rishida Maqsud Shayxzodaning sermazmun ijod mundarajisi adabiy manba vazifasini o'tadi.

"Shayx aka"ning XX asr o'zbek adabiyotidagi adabiy portretini to'lagonli aks ettirishda akademik Naim Karimovning "Maqsud Shayxzoda" nomli ma'rifiy-biografik romanini adabiyotshunoslik ilmida ijodkor haqidagi tadqiqotlari orasida o'zining uslub va janr jihatidan novatorlik xususiyatlari bilan ajarilib turuvchi adabiy asardir. Romanda N.Karimov Maqsud Shayxzodaning ijtimoiy-siyosiy jarayonlar surboniga aylanish sabablarini quyidagiicha izohlaydi: "GPU xodimlarining aniqlashlaricha, Maqsud Shayxzoda 1927-yili Bokuga bonib, u yerdan Istanbulda nashr etilgan "Yeni Kavkaz" journalini olib kelgan. U Ozarbayjoning mustamlakaga aylanib, Dog'istonning esa ruslashib borayotgandan tashvishlanayotganini yashirmagan. Va nima uchundir Bo'ynoqdagagi harbiy qismning son-sanogi", ahvoli va milliy tarkibi bilan qiziqqan. Shuningdek, gamizondagi Qozon tatarlari bilan yaqinlashishga harakat qilgangan. Garchand u o'zining siyosiy qarashlarini o'chiq-qo'ydin bayon etmagan bo'ssa-da, u bilan birga Darbanddan Bo'ynoqqa kelgan va bilim yurtida o'qituvchilik qilayotgan Tavfiq Jalol Dog'istonga mahalliy aholining ruslashib ketishiga yo'l qo'ymaslik uchun kelganlarini aytgan. Xullas, 1927-yilning aprel oyida Qirimdagiga "Milliy firqa" partiyasining Veli Ibrahimov boshchiligidagi bir guruh a'zolari qo'lgan olingach, navbat ularning Bo'ynoq shahridagi izdoshlariga keladi. O'sha yilning iyun-iyul oylarida Edhem Fayziy va Mamed Fayziy bilan birga Shayxzoda ham aksilinqilobiy targ'ibot olib borishda

ayblanib, qamoqqa olinadi". [1: 35]

"Olim adabiyotshunos sifatida tarix, adabiyot, ilm o'rtaсидаги тизгинн тута олган ижодкорлардан бир. Шу боис илмий меросида тарихи жарояв ва адабий ҳайотинг ўрғини маңзарасини игга терилган маҷон сингари тартиблаган. Адабиотшуносликдаги тарихи жарояв ва унинг адабий ҳайотига та'siri адабий ҳодисаларни ijtimoiy ҳайот замирда текширишни о'ргатади". [2: 94] Шу зияъда шоир ҳайотидаги сиёсиy ҳумумлар ва жароянда шоирнинг иши кята ко'rilib taxlam-taxlam aybнома yozildi. "15 sahifadan iborat shu aybномага ko'ra, Shayxzoda va uning do'stleri ijtimoiy xavfli unsurlar" deb topildi va ularni OGPU Doimiy vakolatxonasi ixтиiyoridagi "siyosiy qurilish"ga yuborish haqida hukm chiqarildi". [1: 36] Shu taxlitda Shayx akaning ҳайот yo'lli Toshkent bilan bog'landi. Akademik Naim Karimov ijodkorining Ozarbayjondagi hamda Toshkentdagi ҳайот yo'llini yoritishda va uning tarjimayi holiga aniqliklar kiritishda bolalikdagи ozarbayjoniy do'sti Idris Aliyev, tanqliq teatr arbobi Nazira Aliyeva, ҳayotining ko'p yillari Toshkentda o'tgan ozarbayjoniy Posha G'aniyev, adabiyotshunos olim Vohid Zohidov, Orif Ayubov (mashhur jurnalist A'zam Ayubov Cho'lp'on qatori ilg'ori kishilar bilan bir kunda qatl qilingan ziyoilning ukasi, yozuvchi Mirzakolon Ismoilov, adabiyotshunos Yo'ldosh Solijonov kabi qator ziyoilarning xotira yodnomalari hamda yozishmalaridan umumli foydalanlangan holda Maqsud Shayxzodaning ikki yurtdagi ҳayotini badiy lavhalarda dailliyadi. Akademik ma'rifiy romanda ijodkorining adabiy portretini yaratish barobarida tarixiy jarayonni ijodkorining adabiy-estetik qarashlariga ta'sirini ham alohida o'rganadi. Mazkur holat Shayxzodaning Dog'iston bilan bog'liq yillarini yoritishda yaqqol namoyon bo'ladi. "1920-yil martida qizil armiyaning jangovar harakati bilan Dog'iston uzil-kesil bolsheviklar qo'liga o'tdi. 1921-yil 20-yanvarda esa Butunrossiya Markaziy ijroia Komitetining qarori bilan Dog'iston Rossiya federatsiyasi tarkibidagi avtonom republikasi, deb e'lon qilindi. Donilmualiminni a'lo baholar bilan tugatgan Shayxzodaning ana shu avtonom respublikaga ishga yuborilishi tasodifiy emas. O'tgan asrning 20-yillarda Rossiya federatsiyasi tarkibida yashayotgan Dog'istonning sovetlashib borish xavfli mahalliy aholida Ozarbayjonga yaqinlashish xoishini uyg'oldi". [1: 22-23] Bu kabi tarixiy jarayonning zamirida ko'plab muammolarni ham yuzaga kelgani tabibly. "O'sha paytda Dog'istonda, deb yozadi Shayxzoda, - til muammoasi chirsillab turardi. Dog'iston Respublikasining ko'p

tilliliği (36 til) pirovardida tilsizlikka, ya'ni yagona yoki keng tarqalgan, Dog'iston uchun umumiy bo'lgan tilning bo'lmasligiga olib kelishi mumkin edi. Shu masalada ehtirosli va kuchli bahs-tortishuvlar bo'lib o'tardi. Biz jurnal maqolalarini va xususiy bahs-munozaralarda Dog'iston uchun turk tilining maqsadga muvofiqligini isbotlar edik". [1: 24] Demak, Maqsud Shayxzodaning tanqidiy qarashlari paydo bo'lishida, ijodining yangi boshqichga ko'tarilishida, ijodkar badliy olalining ken-gayishida Dog'istondagi tarixiy jarayonning ma'lum darajada ta'siri mavjud.

Foydalilanigan adabiyotlar

- Karimov N. Maqsud Shayxzoda. Ma'rifly-biografik roman. – Toshkent: Sharq.
- Azimjonova Sh. Tarixiy jarayonning adabiy hayotga ta'siri munaqqid nigohida // Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi, 4/5-son. – Xiva, 2022.
- Karimov N. Shayxzoda va jahon adabiyoti // Jahon adabiyoti, 2008-yil. 11-son. 126–130-betlar.
- Karimov N. Shayxzoda nega qamaqgan? // Darakchi, 2008-yil. 17-aprel.

Akademik Naim Karimov ma'rifly romanlarida ijodkorlarning murakkab va biz uchun zavqlı hayotidan hikoya qilar ekan, har bir vaziyatni badliy talqin qilishga unadir. Tarixiy jarayonni yorqin aksantirishiga ijodkor bilan bog'iqliq bo'lgan tarixiy davrni o'z til bilan so'zlataldi. Bu o'rinda adabiyotshunoslik hamda tarixiy haqiqat bahsiga kirishadi. Olim ma'rifly roman orqali "Shayx aka" xususidagi ilmiy ma'lumotlarga, daililiy materiallarga, ijodkoriga xos badliylik berish, obraz yaratish borasida haqqoniylikka asoslanishi orqali ijodkorning XX asr o'zbek adabiyotshunosligidagi adabiy portretini yaratadi.

Xosiyat ABDUQAHHOROVA,
Toshkent viloyati Chirchiq davlat
pedagogika instituti o'qituvchisi

MUSTAQIL SO'Z TURKUMLARIDA ANTISEMIK MUNOSABATLARNING IFODALANISHI

Ma'lumki, til murakkab ijtimoiy, biologik-fiziologik hodisa sifatida kommunikativ, emotsiyonal-ekspressiv, akkumulativ funksiyalarni bajarádi. Tilning emotsiyonal-ekspressiv funksiyasining namoyon bo'lishida qarama-qarshi bo'lgan birliklarining tahlili muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirga qadar tilshunoslikda leksik qarama-qarshilik bir turkum doirasida o'rganib kelindi. Ma'lum vaqt o'tishi bilan bunday munosabatlardan boshqa so'z turkumlarida ham kuzatilishi mumkinligi haqida fikrlar bildirildi. Mana shu fikrlar asosida D.Abdullayeva yaqin yillarda ziddiyat tushunchasini kengroq o'rganishni maqsad qilib, antisemiyu termini ostida tadqiq etdi. Darslik va qo'llanmalarda borliqdagi ziddiyat, qarama-qarshilik tor tushunlib, antonimiya nomi ostida talqin qilinib kelilingan edi. Vaqt o'tishi bilan jahon tilshunosligi, shu bilan birga, o'zbek tilshunosligida ham so'z turkumlararo antisemik munosabatlardan mayjudligi aniqlandi.

Antisemik munosabatlarning eng keng ko'lamlisi sifat va o'turkumidagi so'zlar o'tasida yuzaga chiqadi. Ol-sifat antisemiyasida yasovchi asos qaysi turkumda bo'lishidan qat'i nazar, antisemik munosabat yadroсини "belgi" tashkil etadi. Chunki ol turkumidagi antisemiyasi, asosan, mavhumin olgarla xos, bunday so'zlar, odatda, belgi yoki harakatdan mavhumin otlar sifatida karakterlanadi. Masalan: yovuz – ma'lum predmetning shunday belgisi, yovuzlik – belgining ob'yektdan xoli shakli.

Mazkur otlar tub so'z shaklida ham (g'am, qayg'u, kul-fat kabi), yasama so'z shaklida ham (ezgulik, yovuzlik, poklik, shodlik kabi) kuzatiladi. Yasama so'z shaklida kelganda ular semantikasidagi belgi tub holatidagidan yorqinroq aks etadi, chunki bunday holatda semantik aksolanish ham sodir bo'ladi: ezgu – ezgulik, yovuz – yovuzlik kabi. Bunday holatda asosning o'zi o'zgartmasdan mavhumin otlarini hosil qiladi.

Bu hodisa yuqorida keltirilgan misollardagi kabi sifat asosdan o'tasaliganda yorqin namoyon bo'ladi. Ayniqsa, sifatdan -lik yasovchi affaksi asosdan mavhumin otlar yasalganda, asos va yasalma semantikasi juda yaqin hisoblanadi. Turkum otga o'tgan bo'lsa-da, predmetlik xususiyatidan ko'retbelgi xususiyati kuchli bo'ladi (yomon – yomonlik kabi). Bunday antisemik munosabatlarning asosiy qismi sifat asosdan -lik affaksi yordamida mavhumin ot yasalganda yuzaga chiqadi. Bu holatda antisemiyu antonimiya yaqinlashgan eng kuchli holat deb e'tirof etishimiz mumkin. So'z turkumlararo antisemik munosabatlardan ot va sifat so'z turkumlarida ham ko'p kuzatiladi.

Harakat va predmet bildiruvchi so'zlar antisemiyasida antisemik yadro asosini juda ko'p holatlarda "harakat" semasi tashkil etadi. Chunki so'f predmetlik semasi antisemik munosabatni yuzaga keltira olmaydi. Bunda predmet sifatida ham harakatning muallaq holati olinadi. Masalan, kulmoq so'zini yig'lamoq so'ziga